

**RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH CHORA TADBIRLARI**

Buxoro viloyat Buxoro shahar kasb-hunar maktabi katta o'qituvchisi

Rahmatova Nafosat Jumayevna

Buxoro shahar kasb-hunar maktabi o'qituvchisi Boltayeva

Qumriniso To'xtamurotovna

Har bir davlat kelajagi fuqarolarining intellektual salohiyatiga, madaniyati, buniyodkorligiga tayanadi. Zero, eski ta'lif-tarbiya asosida yangi jamiyat qurib bo'lmaydi. Shu jihatdan mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog'liq.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda ilm-fanning rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Iqtisodiy qiyinchiliklar hamda o'tish davri muammolariga qaramasdan sovet tuzumi davrida shakllangan ilm-fan infrastrukturasi bir tomonidan saqlab qolindi, boshqa tomonidan uning yanada rivojlanishi uchun huquqiy, ma'naviy, iqtisodiy asoslar yaratildi. Matematika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik texnologiyalarni qo'llash, mashg'ulot samaradorligi uchun ko_rgazmali materiallardan foydalanish, savolvoblar o'tkazish, mavzu uchun metodik ochqich vazifasini bajaruvchi elementlarni topa olish bilan xarakterlanadi. Buning uchun Yevropa mamlakatlarini o'ganishda qiyoslash asosida mahalliy materiallardan foydalangan holda mashg'ulot otkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqot obyekti. Jahan mamlakatlarini o'rganishda mahalliy materiallardan ham foydalanib, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni.

- Matematika darsida ta'lif texnologiyalaridan foydalanish;
- Innovatsion ta'lif texnologiyalari haqida;
- Rivojlangan davlatlar ta'lif texnologiyalariga umumiylashtirish;
- Germaniya va Finlandiya davlatlarining ta'lif texnologiyalari asosida o'rganishga doir;

Professional ta'lif tizimini rivojlanish chora tadbirdi.

Xalqaro mehnat bozori talablari, integratsion jarayonlarning jadallahushi, raqamlashtirish, sanoatdagi texnologik inqiloblar davrida zamon talablariga mos malaka va ko'nikmalarga ega raqobatbardosh o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashni, kasb-hunar ta'lif sohasida yangi tizimni — xalqaro andozalarga mos professional ta'lif tizimini talab qildi.

Natijada kasb-hunar ta'lifi sohasida ham davlat siyosati tubdan o'zgardi.

Prezidentimiz tomonidan sohada tub islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy professional ta'lif tizimini barpo etishning maqsad va ustuvor vazifalari, bir so'z bilan aytganda, sohaning yangi missiyasi belgilab berildi. Shu tariqa tizim oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissa qo'sha oladigan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash;
- yoshlarni malakali mehnat orqali o'z hayot farovonligini ta'minlashga o'rgatish;
- o'z mehnat faoliyatiga innovatsion va kreativ yondashish, yaratuvchanlik, intellektual, madaniy, ma'naviy potensialni rivojlantirish kabi kompetensiyalarni shakllantirish metodologiyasini yaratish.

Ana shu missiya va maqsadlarni ko'zlab, Prezidentimizning 2019 yil 6 sentyabrda "Professional ta'lism tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Yangi professional ta'lism muassasalarida ta'lism mazmuni, soni va sifati, ta'lism dasturlari, texnologiyalarining isloh qilinishi oqibatida quyidagi tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi:

Birinchidan, 2020/2021-o'quv yilida professional ta'lism tizimida respublika bo'yicha jami 725 ta ta'lism muassasasi, ya'ni 339 ta kasb-hunar maktabi, 200 ta kollej va 186 ta texnikum faoliyat ko'rsatishi belgilandi.

1-toifa — kasb-hunar maktablarida ta'limga xalqaro standart tasniflagichining 3-darajasiga mos keluvchi 2 yillik ta'lism dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilari boshlang'ich professional ta'lism oladi.

Kasb-hunar maktablarida ustuvor yo'nalish sifatida oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko'rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi iqtisodiyotimizda muhim o'rinnegi egallagan 200 dan ortiq ishchi kasblari bo'yicha kadrlar tayyorlanadi.

Kambag'allikka qarshi kurash doirasida, avvalo, kam ta'minlangan oilalar farzandlarida tadbirkorlikka, biznesga, pirovard natijada daromad olishga yo'naltiruvchi bilim, malaka va ko'nikmalar hamda kompetensiyalar shakllantiriladi.

2-toifa — kollejlarda ta'limga xalqaro standart tasniflagichining 4-darajasiga mos keluvchi, kasblarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, 2 yilgacha bo'lgan muddatlar davomida o'qitishga mo'ljallangan ta'lism dasturlari asosida o'rta professional ta'lism mutaxassislari tayyorlanadi.

Vazirlıklar, idoralar va tashkilotlar tasarrufida faoliyat ko'rsatadigan va shu sohadagi aniq ish o'rni uchun mutaxassislar tayyorlaydigan ushbu kollejlarga maktablarning 11-sinf bitiruvchilari qabul qilinadi.

Kollejlarda Germaniya tajribasida yaxshi samara bergan "dual" ta'lism prinsiplari joriy etiladi: o'quvchilar haftaning ma'lum kunlarida kollejda nazariy bilim oladi, boshqa kunlari korxonaning o'zida biriktirilgan usta rahbarligida to'g'ridan-to'g'ri kelajakda ishlaydigan ish o'rnida amaliyot o'taydi.

3-toifa — texnikumlarda ta'limga xalqaro standart tasniflagichining 5-darajasiga mos keluvchi, bakalavriat ta'lism yo'nalishlari bilan integratsiyalashgan, kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lism shakllarida kamida 2 yil muddatga mo'ljallangan ta'lism dasturlari asosida 11-sinfni tugatgan yoshlar o'qitiladi.

2 yillik tafsildan so'ng bitiruvchilar oliy ta'lif muassasasida o'qigan kasbi bo'yicha suhbat asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin.

Ikkinchidan, kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida milliy malaka tizimi ishlab chiqildi. O'zbekistonda ilk bor Milliy kvalifikatsiya ramkasi, tarmoq kvalifikatsiya ramkalari, kasb va mutaxassisliklar bo'yicha professional standartlar hamda tabaqlashtirilgan ta'lif standartlari va dasturlari tasdiqlanib, joriy etilmoqda.

Uchinchidan, o'qitish muddatlari o'zgardi. Xususan, ilgarigi 3 yillik bir xil qolipdagi standartdan to'liq voz kechildi. Mutaxassisliklarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, tabaqlashtirilgan o'qitish muddatlari joriy qilindi. Qo'shimcha ravishda professional ta'lif muassasalarini tugatgan yoshlarimizga kelgusida oliy ta'lifda o'qishini davom ettirish va butun umr davomida o'z malakasini oshirib borish imkoniyati berildi.

To'rtinchidan, ta'lif dasturlari va shakllari o'zgardi. Endi ta'lifning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashgan va mehnat bozori talablari asosida moslashuvchan kadrlar tayyorlash yangi professional ta'lif dasturlari asosida joriy etiladi.

Kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lif shaklida 2 yilgacha muddatda o'qitish tizimi joriy etiladi. Misol uchun, oliy ta'lifning bakalavriat ta'lif yo'naliishlari bilan integratsiyalashgan xalqaro "Associate degree" darajasida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha kamida 2 yil muddatga mo'ljallangan ta'lif dasturlari amaliyotga joriy etiladi.

Ta'lif dasturlari yakunlari bo'yicha bitiruvchilarga razryad ko'rsatilgan sertifikat, guvohnoma va diplom beriladi.

Beshinchidan, ta'lif texnologiyalari o'zgaradi. Bunda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, avvalo, Germaniya tajribasida yaxshi samara bergen "dual" ta'lif prinsiplari joriy qilinadi.

Professional ta'lifning sifat va samaradorligini ta'minlash maqsadida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lif dasturlari yaratildi va yangi o'quv yilidan tadbiq etish boshlanadi.

Oltinchidan, 2020/2021 o'quv yilidan boshlab, kollejlar va texnikumlar mehnat bozorining xususiyatlari, ish beruvchilarning texnologik jarayonlarini hisobga olgan holda ta'lif jarayonida foydalilanidigan fan (modul) va amaliyot dasturlarini ish beruvchilar bilan birga mustaqil ishlab chiqadi hamda amaliyotga joriy etadi. Bu degani, endi o'rta bo'g'in mutaxassislari oldindan aniq ish o'rniga ish beruvchi qo'yan malaka talablari asosida tayyorlanadi va kelgusida o'sha ish o'rniga borib joylashadi. Shuningdek, O'zbekistonda ilk marta joriy o'quv yilidan boshlab, professional ta'lif muassasalarida tadbirkorlikka yo'naltirilgan o'quv rejalarini tajriba sinov-tariqasida joriy etiladi.

Yettingidan, davlatimiz rahbarining "Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi", degan so'zlaridan kelib chiqib, Kasb-hunar ta'limi tizimini

innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash institutida innovatsion muhit, yangi makon yaratildi.

Malaka oshirishning yangi 18 ta moduli joriy qilindi. Pedagogika prinsiplaridan androgogika prinsiplariga o'tiladi.

Malaka oshirishga kelgan tinglovchilar uchun ta'limni innovatsion rivojlantirishga doir 17 ta taqdimot tayyorlanib, taqdim etildi. 200 dan ortiq vizuallashtirilgan va raqamlashtirilgan yangi elektron ta'lim resurlari bazasi yaratildi.

Bu muhitda o'qish, anglash, tafakkur qilish, bunyod etish, yangi g'oyalar, kreativlik, tashabbuskorlikka rag'bat uyg'otish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud.

Sakkizinchidan, ta'lim tizimini jahon andozalariga to'liq moslashtirish, ishchi kasblarning nufuzi va jozibadorligini oshirish maqsadida O'zbekiston "WorldSkills" xalqaro harakatiga qo'shildi va ushbu tashkilotga a'zo bo'ldi.

Ayni paytda "WorldSkills" O'zbekiston assotsiatsiyasi faoliyatini yanada rivojlantirish choralari ko'rilmoxqda.

Bu tashkilot bilan hamkorlik yoshlarimizda zamonaviy kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda xalqaro mehnat bozorida tengdoshlari bilan barobar raqobat qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir jiddiy o'zgarish. Bugun butun dunyoda XXI asr kompetensiyalari sifatida talqin etilayotgan "yumshoq" (soft) kompetensiyalarni shakllantirishga alohida urg'u beriladi.

Bu borada bir qator nufuzli xorijiy tadqiqot markazlari, jumladan, Butunjahon iqtisodiyot forumi tomonidan taqdim etilgan 2020 yil uchun eng muhim 10 ta kompetensiya, Yevropa uchun ustuvor tayanch kompetensiyalar, Yevropa standartlari doirasidagi Dublin deskriptorlari, Rossiya uchun ustuvor tayanch kompetensiyalar chuqur tahlil qilingan holda milliy mentalitetimizga xos va mos kompetensiyaviy yondashuv joriy etiladi.